O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING KATTAQO‘RG‘ON FILIALI

Ro‘yxatga olindi
№BD-60111800-2.02

“TASDIQLAYMAN”
Samdu KQF direktori
Sh.R.Urakov
2022 yil

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI FANINING O‘QUV DASTURI

(3-kurs V semestr)

Bilim sohasi: 100000-Ta’lim

Ta'lim sohasi: 1100000-Ta’lim

Ta'lim yo‘nalishi: 60111800 – Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili)

Fan / Modul kodi TNA 1503	O'quv yili 2023-2024	Semestr 5	ECTS – Kreditlar 3
Fan/Modul turi Majburiy	Ta'lim tili Ingliz		Haftadagi dars soatlari: 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Tarjima nazariyasi va amaliyoti	40	50	90

I. Fanning mazmuni

Fanning o'qitishdan maqsad - bo'lajak pedagoglarga tarjima nazariyasi va amaliyoti fanining ilmiy - nazariy masalalari, tarjima bilan bog'liq muammolar haqida atroflicha bilim berish bilan birga ularning kelajakdagi ish faoliyatlarida amaliy ahamiyat kasb etuvchi lingvistik bilim, ko'nikma, va malakalarni shaklantirish va rivojlantirishdan iborat. Fanning vazifasi – tarjima va u bilan bog'liq ilmiy nazariy masalalar bo'yicha bilimlarni o'rgatishdan iborat. Ushbu fan talabalarni nazariy va amaliy jihatdan yetuk mutaxassis bo'lishlari uchun xizmat qiladi.

II. Asosiy qism (ma`ruza va seminar mashg'ulotlar)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Tarjima nazariyasi va amaliyoti
Ma`ruza mavzulari
1- **mavzu: The aspect of theory and practice of translation**
Tarjima nazariyasi va amaliyoti fanining tarixi rivojlanish bosqishlari, tarjimaning xususiy nazariyalari, tarjimashunoslik fanining obyekti, maqsadi va vazifalari, tarjimaning tilshunoslik bilan bog'liq jihatlari.
2- **mavzu: Translation theory: Object and objectives**
Tarjima nazariyasi va amaliyoti fanining obyekti, tarjimashunoslikka oid termenlar, tarjimaning xususiy va umumiy nazariyalari
3- **mavzu: Equivalence and its types in translation**
Tarjima turlari, tarjima birlikları va darajalari, ma'lumotlar turlari, muqobil tarjima, muqobillikning turlari.
4- **mavzu: Main types of translation**

Terminologik lo`g`atlar, tarjima turlari, birliklari va darajalari, tarjimaning tilshunoslik bilan bog`liq jihatlari.
5- **mavzu: Lexical problems of translation and types of lexical transformations** So`z semantikasi va tarjima, ingliz va o`zbek tillarida so`z ma`nolari hajmi va shakli o`rtasidagi farqlar, omonim so`zlar va polisemantik so`zlar tarjimasi, so`z va kontekst, so`z va so`z birikmalari sinonimiyasi, atoqli otlar, geografik nomlar, tashkilotlar nomlarini tarjima qilish, termenlar tarjimasi, qisqartma so`zlar tarjimasidagi muommolar tarjimaga oid "sohta do`stlar" muammosi, leksik lakunalar Tarjimafa leksik transformatsiyalar: konkretlashtirish, umumiylashtirish, antonimik tarjima, tushirib qoldirish, so`z qo`yish, ma`nosini kengaytirish kompensiyasi
6- **mavzu: Grammatical problems of translation** Grammatik ma`no turlarini tarjimada ifodalash, ingliz va o`zbek tillarida gap strukturasi va undagi farqkar, grammatik shakl va konstruksiyalarni tarjima qilish prinsplari, artiklar tarjimasi, noaniq olmosh tarjimasi, predloglar tarjimasi, ingliz tilida erkalovchi va kichraytiruvchi affikslar, tarjimada grammatik transformatsiyalar: so` turkumlarini almashtirish, gap almashtirish, majhullik nisbatini aniqlik nisbat bilan almashtirish, grammatik sabablarga ko`ra so`z qo`shish va so`zni tushirib qoldirish, qo`shma gapni sodda gap bilan almashtirish.
7- **mavzu: Phraseological problems of translation** Uslubning tarjimaviy talqini, matnning funksional- stilistik xususiyatlari, badiiy matn tarjimasi, perifrazalar tarjimasi, jargonlarga oid so`zlar tarjimasi, ideomalar tarjimasi
8- **mavzu: National colouring in translation** Realiya tushunchasi, realiyalar kassifikatsiyasi, tarixiy realilar tarjimasi, o`lchov birliklari, geografik nomlar tarjimasi, taqlidiy so`zlarni tarjima qilish muammolari, ingliz tili va o`zbek tillarida murojaat shakllari va ularni tarjimada ifodalash
9- **Mavzu: Translation of scientific- technical newspaper terms** Ilmiy, ilmiy-ommabop matnlar tarjimasi. Texnik tarjima, rasmiy hujjatlat va ularning tarjimasi muamolari, gazeta va publitistik matnlar tarjimasining o`ziga xos xususiyatlari
10-**mavzu: Pragmatics of translations** Tarjimada joy kabi ekstralingvistik faktorlarni hisobga olish, matnning g`oyaviy yo`nalishini tarjimada saqlash masalalari, muallif- tarjimon aloqasi, tarjimada asl matn muallifning ruhiyatini saqlashmada kommunikatsiya elementlarini hisobga olish zaruriyati, davr koloriti
20 soat

Seminar mavzulari
1–mavzu: **The aspect of theory and practice of translation**
2- mavzu: **Translation theory: Object and objectives**
3-mavzu: **Equivalence and its types in translation**
4-mavzu: **Main types of translation**
5- mavzu: **Lexical problems of translation and types of lexical transformations**
6- mavzu: **Grammatical problems of translation**
7-mavzu: **Phraseological problems of translation**
8-mavzu: **National colouring in translation**
9-mavzu: **Translation of scientific- technical newspaper terms**
10-mavzu: **Pragmatics of translations**
20 soat

Ma`ruza va seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

"Tarjima nazariyasi va amaliyoti" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

-Tarjima nazariyasi va amaliyotiga doir nazariy masalalari o'rganish metodlarini bilishi kerak;

-Tarjima naariyasi va amaliyotiga doir muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etishi, ularga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; Ingliz tili va o'zbek tilida tarjima qilishda duch kelinadigan muammolardan xabardor bo'lishi kerak

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

2-jadval

Mustaqil ta'lim mavzulari
1-mavzu. The aspect of theory and practice in translation (prepare a two minute speech and submit a video) (2)
2-mavzu. Object and objectives of translation theory and practice (give information about the given topic) (4)
3-mavzu. Equivalence and its types in translation (watch the video and get the main points of information, prepare a two- minute speech) (4)
4-mavzu. representing national realias (analyze the given text and find national

Uzbek realias) (4)
5-mavzu. Lexical problems in translation (read the given material and find extra information from the internet and prepare a twelve-slide presentation) (4)
6-mavzu. Grammatical problems in translation (Analyze the given text find out complete, partial correspondence, absence of grammatical correspondence and also grammatical transformations) (4)
7-mavzu. Problems with translation of phraseological units (Read the given material , find additional information and prepare a twelve-slide presentation) (4)
8-mavzu. Lexical transformations (read the given material and prepare a two-minute speech) (4)
9-mavzu. Translation and its types (find information about main types of translation, literary translation, informative translation, consecutive translation, simultaneous translation)
10-mavzu. The rendering of the words of national colouring (find extra information about words of national coloring and prepare a twelve-slide presentation) (4)
11-mavzu. Expressing lexical features in Translation(selected work) (analyze the given text and find lexical features) (4)
12-mavzu. Grammatical features in translation (selected work) (analyze the given text and find lexical features) (4)
13-mavzu. Importance of terminological dictionaries in translation(4)
O'quv yili davomida:50 soat

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompьyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron – didaktik texnologiyalardan;
- seminar mashg'ulotlarida "Aqliy xujum", guruhli fikrlash, "Bumerang", "Birgalikda o'qiymiz" va boshqa texnologiyalardan, kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- mahsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- internetdan foydalanish;
- masofaviy (distantsion) ta'lim.

III. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

Talaba bilishi kerak:

• tarjima nazariyasi va amaliyoti fani Umum Yevropa standartlariga ko'ra B2 darajada o'rganishi;

• turli strategiyalarni qo'llay olish orqali egallashi;

• tushunish va muhokama qilish uchun bosqichma-bosqich turli o'quv materiallari bilan ishlash usullarini o'zlashtirishi;

• o'z fikr va mulohazalarini lingvistik kurs mavzularidan kelib chiqqan holda yozma va og`zaki ravishda aniq va mantiqiy bayon etishi;

IV. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

• interfaol keys-stadilar;

• mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar;

• guruhlarda ishlash;

• taqdimotlarni qilish;

• individual loyihalar;

• jarayonga asoslangan metod

• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

V. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha og`zaki va yozma vazifani topshirish.

Fan doirasida talabalar Yevropa Kengashining "Chet tilini egallashning umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR) ga ko'ra B2 darajaga mos keladigan til materiallarini tushunish, mazmunini tahlil qilish, mavzularga oid turli matn turlarini o'qib, tinglab mazmunini tushunishlari va o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ifoda eta olishlari shart.

6. **Asosiy adabiyotlar:**

1. Muminov A. "A guide of consecutive translation"- T.:Tafakkur bo'stoni, 2013.-220p

2. G'ofurov I. Mo'minov O. qambarov N. Tarjima nazariyasi - T.:Tafakkur bo'stoni, 2012.-216p

3. G'ofurov I Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish - Toshkent- 2008, 117p

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Muminov O, Xodjayeva M, Mirzamuhammedova R, Alimova Z. Practical course in translation - T.:O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.-192p

2. Muminov O, Qo'ldoshev A, Xoshimov O'. English for translators -T.: sharq nashriyoti, 2005.-384p

Axborot manbalari:

1. http//:www.conferenceinterpreters.com

2. http//:www.conference-interpreting.ru

3. http//:www.oz-translations.net

7.	Fan dasturi Samarqand davlat universitetitening Kattaqo'rg'on filiali kengashining 2022 yil __ _____dagi ___- son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan / modul uchun mas'ullar:** **Sattorova N. I.** - SamDUKF, Gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi
9.	**Taqrizchilar:** F. *J.Yakubov* - SamDUKF, "Gumanitar fanlar kafedrasi" assistant o'qituvchisi.